



ASSOCIATION OF UNITS REPRESENTING COLOR IN THE UZBEKI LANGUAGE

Ranakhon Ahmadaliyevna Ubaidullaeva

Lecturer

IDUM 2

Fergana, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Uzbek linguistics, lexical unity, words expressing color, associations, associativeness of words, cognitive, lexical-semantic unity.

Received: 07.01.24

Accepted: 09.01.24

Published: 11.01.24

Abstract: In linguistics, color-expressing words are crucial for making objects appear colorful in the mind. A person retains knowledge about items and the color they seem to him in his memory. Later, when exposed to an external stimulus, this information is associatively recreated in his memory. Language association is the phenomenon in question. We spoke about color correlations in Uzbek language in this article.

O'ZBEK TILIDA PANG-TUS IFODALOVCHI BIRLIKLAR ASSOTSIATIVLIGI

Ra'noxon Ahmadaliyevna Ubaydullayeva

o'qituvchi

2-IDUM

Farg'ona, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: O'zbek tilshunosligi, leksik birlik, rang-tus ifodalovchi so'zlar, assotsiatsiyalar, so'zlarning assotsiativligi, kognitiv, Leksik-samantik birlik.

Annotatsiya: Tilshunoslikda narsalar rang bo'yog'ining tafakkurda jonlanishida, avvalo, rang-tus ifodalovchi so'zlar muhim o'rin tutadi. Inson o'zi tomonidan idrok etilgan narsa-predmetlar va ularning rang-tusi bo'yicha ma'lumotlarni xotirasida saqlaydi, bu ma'lumotlar keyinchalik biror bir tashqi turtki ta'sirida assotsiativ tarzda xotirasida qayta tiklanadi. Bu hodisa lisoniy assotsiatsiyadir. Mazkur maqolada o'zbek tilidagi rang-tus assotsiatsiyalar haqida tadqiqot olib bordik.

АССОЦИАЦИЯ ЦВЕТОВЫХ ЕДИНИЦ В УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКЕ

Ранахан Ахмадалиевна Убайдуллаева

преподаватель

ИДУМ 2

Фергана, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Узбекское языкознание, лексическое единство, слова, выражающие цвет, ассоциации, ассоциативность слов, когнитивное, лексико-семантическое единство.	Аннотация: В лингвистике слова, выражающие цвет, играют важную роль в оживлении цвета вещей в мышлении. Человек хранит в своей памяти информацию о воспринимаемых им предметах и их цвете, эта информация в дальнейшем восстанавливается в его памяти в ассоциативном порядке под воздействием внешнего раздражителя. Это явление – языковая ассоциация. В этой статье мы обсудили цветовые ассоциации в узбекском языке.
---	---

KIRISH

Inson ko'ruv sezgisi yordamida narsa-predmetlarning rang bo'yog'ini his qilib, xotirasida saqlab qolishi sababli har gal ushbu predmet nomini eshitganda uning rang bo'yog'i assotsiativ tarzda ko'z oldida namoyon bo'ladi. Yoki biror rang-tusni anglatuvchi so'zni eshitganda ham u ifodalagan rang obyekti xotirasiga keladi. Demak, inson o'zi tomonidan idrok etilgan narsa-predmetlar va ularning rang-tusi bo'yicha ma'lumotlarni xotirasida saqlaydi, bu ma'lumotlar keyinchalik biror bir tashqi turtki ta'sirida assotsiativ tarzda xotirasida qayta tiklanadi. Bu hodisa lisoniy assotsiatsiya bo'lib, til birliklarining inson xotirasida bir-birini yodga solishi mexanizmini aks ettiradi.

ASOSIY QISM

Demak, predmetlar rang bo'yog'ining tafakkurda jonlanishida, avvalo, rang-tus ifodalovchi so'zlar muhim o'rin tutadi. Chunki tabiatdagi barcha narsa-predmetlar ham ajralib turuvchi rang bo'yog'iga ega emas. Bunday predmetlar insonda rang bilan bog'liq assotsiatsiyalarni har doim ham hosil qilavermaydi. Tilda bu turdagi predmetlar nomini anglatuvchi so'zlarning ham rang-tus ifodalovchi so'zlar bilan assotsiativ aloqasi kam kuzatiladi. Masalan, *kitob*, *daftar* kabi o'quv qurollarini bildiruvchi so'zlarning rang-tus ifodalovchi so'zlar bilan assotsiativ aloqasi juda kuchsiz. Chunki bunday predmetlar rang bo'yog'i bilan ajralib turmaydi, bu belgi ularda juda muhim belgi emas. Ammo qalam, ruchka kabi o'quv qurollari uchun rang bo'yog'i nihoyatda ahamiyatli. Shu sababli ular tilda ko'pincha rang ifodalovchi so'zlar bilan birga qo'llandi: *qora qalam*, *qizil ruchka* kabi. Inson uchun qalam, ruchkaning rang bo'yog'i muhim bo'lganligi sababli ular rangi bilan ajralib turuvchi predmetlar sifatida

tasavvurni hosil qiladi. Ushbu tasavvur tilda *qalam*, *ruchka* soʻzlariga nisbatan rang-tus ifodalovchi assotsiatsiyalarning hosil boʻlishiga olib keladi.

Anglashiladiki, muayyan leksik birlik rang boʻyogʻi bilan ajralib turadigan predmet nomini anglatsa, u holda, avvalo, shu predmetning rang boʻyogʻi inson xotirasida tiklanadi. Baʼzan predmet yagona rang boʻyogʻiga egaligi bilan ajralib turadi. Vaqt oʻtsa-da, insonda ushbu predmetga nisbatan uning doimiy rang boʻyogʻini aks ettiruvchi assotsiatsiya takrorlanaveradi. Masalan, archaning qishin-yozin yashil rangda boʻlishi, uning yashilligi oʻziga xos muhim belgisi sifatida eʼtirof etilishi til egalarida *archa* soʻziga nisbatan bevosita *yashil* assotsiatsiyasining yuzaga kelishiga sabab boʻladi. Bu assotsiatsiya doimiy boʻlib, muayyan vaqt oʻtsa-da, til egalarida takrorlanaveradi. Ammo predmetlarning rang boʻyogʻi oʻzgarsa, til egalarida ushbu predmetga nisbatan assotsiatsiyalar ham oʻzgarib boraveradi. Demak, ayrim soʻzlarning assotsiativ maʼnosi soʻz anglatgan tushunchaning oʻzgarishi natijasida yangi maʼno kasb etishi mumkin.

Har bir til egasida rang-tus ifodalovchi soʻzlar bilan bogʻliq holda turli assotsiatsiyalar hosil boʻladi. Bunday assotsiatsiyalar nafaqat rang-tus ifodalovchi soʻzlarga nisbatan, balki bu ranglar namoyon boʻladigan predmetlarni bildiruvchi soʻzlarga nisbatan ham hosil boʻlishi mumkin. Bu jihatdan rang-tus ifodalovchi soʻzlar bilan bogʻliq holda yuzaga keladigan assotsiatsiyalarni quyidagi turlarga ajratish mumkin:

1. Predmet bildiruvchi soʻzlarning rang-tus ifodalovchi soʻzlar bilan semantik aloqasi asosida yuzaga keladigan assotsiatsiyalar.
2. Rang-tus ifodalovchi soʻzlarning predmet bildiruvchi soʻzlar bilan semantik aloqasi asosida yuzaga keladigan assotsiatsiyalar.
3. Rang-tus ifodalovchi soʻzlarning oʻzaro uyadoshlik munosabati asosida yuzaga keladigan assotsiatsiyalar.

Predmet va ranglarning bir-biri bilan aloqasi til egalarida yondoshlikka asoslangan assotsiatsiyalarni yuzaga keltiradi. Boshqacha, aytganda, predmet eslanganda uning rang boʻyogʻi, rang idrok etilganda u tegishli boʻlgan predmet xotirada tiklanadi. Mana shu yondoshlik tilda rang-tus ifodalovchi soʻzlar va predmet bildiruvchi soʻzlar oʻrtasida assotsiativ-semantik aloqani yuzaga keltiradi. Masalan, oʻsimlik yashil rangni, qor oq rangni, quyosh esa sariq rangni xotiramizda tiklaydi. Shu sababli tilda *oʻsimlik* – *yashil*, *qor* – *oq*, *quyosh* – *sariq* assotsiativ juftliklari shakllanadi.

Xuddi shunday, til egalarida rang-tus ifodalovchi soʻzlarga nisbatan ham turli assotsiatsiyalar yuzaga keladi. Bunday soʻzlarning predmetlarni bildiruvchi soʻzlar bilan semantik aloqasi ular oʻrtasida assotsiativ aloqani taʼminlaydi. Bu oʻrinda rang-tus bildiruvchi

so'zlarning muayyan predmetlar belgisini bildiruvchi so'zlar sifatida idrok etilishi ham bu so'zlarga nisbatan predmet tasavvurining xotirada jonlanishiga olib keladi. Masalan, *moviy* so'ziga nisbatan *osmon*, *sariq* so'ziga nisbatan *tilla* assotsiatsiyasi *moviy*, *sariq* so'zlarining predmetlar rang belgisini anglatishi xususiyati asosida hosil bo'ladi.

Anglashiladiki, rang-tus ifodalovchi so'zlar qanday predmetlarning rangini ifodalashda qo'llansa, shu predmetlarni anglatuvchi so'zlar bilan semantik-assotsiativ munosabatga kirishadi.

Predmetlarning doimiy rang bo'yog'i til egalarida bir xil assotsiatsiyalarning yuzaga kelishiga sabab bo'ladi. Bunday assotsiatsiyalar jamoaviy xarakterga ega bo'ladi. Masalan, *paxta* so'ziga nisbatan hosil bo'ladigan *oq*, *qon* so'ziga nisbatan yuzaga keladigan *qizil* assotsiatsiyasi til egalarida takrorlanadi. Ammo predmetlarning rang bo'yog'i o'zgaruvchan bo'lsa, til egalarida ularga nisbatan turli rang bildiruvchi assotsiatsiyalar hosil bo'ladi. Masalan, *mashina* – *oq*, *qora*; *olma* – *yashil*, *sariq*, *qizil* kabilar.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, rang-tus bildiruvchi so'zlarning assotsiativligi xususiyati, avvalo, ularning predmetlar rang bo'yog'ini aks ettirishida namoyon bo'ladi. Bunday vaziyatda tilda [predmet+ rang] aloqadorligi assotsiatsiyani yuzaga keltiradi.

Rang-tus bildiruvchi so'zlarning assotsiativligi ramziy ma'nolarda qo'llanishida ham namoyon bo'ladi. Bunday so'zlar turli ramzlarni anglatishi sababli til egalarida shu ramzlarni ifodalovchi assotsiatsiyalarni hosil qila oladi. Masalan, o'zbek tilida *qora* so'ziga nisbatan yovuzlik assotsiatsiyasining yuzaga kelishi bu so'zning ramziy ma'noda "yovuzlik, yomonlik"ni anglatishi bilan bog'liq. Rus tilida esa *чёрный* so'zi "o'lim, omadsizlik, tashvish ramzi" sifatida qo'llanishi sababli rus tili egalarida shu tushunchalarni anglatuvchi assotsiatsiyalarni hosil qiladi.

XULOSA

Xullas, o'zbek tilida rang-tus ifodalovchi birliklar assotsiativ xususiyatga ega. Ularning assotsiativligi, avvalo, predmetning rang bo'yog'ini anglatishi bilan bog'liq holda namoyon bo'ladi. Shuningdek, predmet ifodalovchi so'zlarning rang ifodalovchi so'zlar bilan semantik jihatdan yaqin aloqasi, ularning lug'aviy ma'nosida rang semasining mavjudligi, rang-tus ifodalovchi so'zlarning ramziy ma'nolari kabilar ham bu so'zlarning assotsiativlik imkoniyatini yanada kengaytiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Лутфуллаева Д. Ассоциатив тилшунослик назарияси. – Тошкент: "Meriyus", 2017. – Б. 7.
2. Выродова А.С. Лингвокультурологическое пространство колоративов в русском поэтическом дискурсе первой половины XX века: на материале поэтических текстов С.А. Есенина и Н.М. Рубцова: Дисс. ... канд. филол. наук. – Белгород, 2008. – 224 с. // <https://www.dissercat.com/content/lingvokulturologicheskoe-prostranstvo-kolorativov-v-russkom-poeticheskom-diskurse-pervoi-pol>